



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 475 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллович, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohnbazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожинов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbeyeve Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamsiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	
Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati.....	307
Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi	
Yangi O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyoti: qiyosiy tahlilning asosiy tendentsiyalari	313
Ro'ziyeva Dilfuza Toshmurovna	
Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning muammolari va uni bartaraf etish yo'nalishlari.....	318
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi qo'shni hududlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlantiruvchi omillari	323
Sattarov R.A.	
Desentralizatsiyalangan ma'lumot almashish protokollari: IPFS, Filecoin va Arweave tahlili	328
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Transport xizmatlari ko'rsatish biznes-jarayonlarini raqamli transformasiya talablari asosida takomillashtirish.....	333
Komilov Asror Akmalovich	
Empowering the Future: Assessing the Role of Automation, Internet of Things (IoT), and Demand Management in Enhancing Energy Efficiency of Smart Grids.....	338
Khakimjanova Surayyo Khabibullayevna	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari (xalqaro va mahalliy misollar)	345
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish	352
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi	
Mijozlar tajribasini yaxshilashda raqamli integratsiya strategiyalari: "O'zbektelekom" AK tajribasi.....	358
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari.....	361
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish omili sifatida: Yevropa tajribasi.....	368
Turobjanov Murodjon Maxammadjanovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda kichik biznes va mahalla hamkorligi modellarini takomillashtirish	373
Murotov Nodir Xujamqulovich	
Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston bank sektori va iqtisodiyotiga ta'siri: YETTB faoliyati misolida tahlil.....	378
Alimov Azizbek Alievich	
Bankrotlik xavfini tahlil qilish modellari.....	386
Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich	



Xizmat ko'rsatish korxonalarida sifat va samaradorlikni oshirishni takomillashtirish yo'llari.....	393
Burxonova Nargiza Mirshohid qizi	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida bank tizimi islohotlari va ularni boshqarish strategiyalari.....	400
Hamroyev Xurshid Jalilovich	
“Temir yo'l transportida MHXSni joriy etishning ahamiyati va milliy standartlar bilan taqqoslama tahlili”	405
Babaxalov Norbo'ta Eshnazarovich	
Banking and financial services in the process of economic development digitalization and its advantages and security of the process	409
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, Baxanurov Oqil Odil og'li	
Kichik biznesda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	416
Abduvosit Omonboyev	
“Futurologiya va mintaqaviy iqtisodiy transformatsiya: Markaziy Osiyoda O'zbekistonning strategik senariylari”	421
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.....	425
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	434
Додиев Феруз, Голышева Елена Вячеславовна	
Turistik erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish: Imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	443
Xoliqov Dostonbek Rustam o'g'li	
Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklik: moliyalashtirish modelini modernizatsiya qilish yo'nalishlari.....	449
Bozorov Alisher O'zimurotovich	
Xalqaro raqamli intergatsiya, raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari faoliyati tahlili	455
Turapov Bahromjon Alisher o'g'li	
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili.....	461
Mamatkulova Nodira Maxkamovna	
Davlat xaridlari ishtirokchilarining elektron-skoring tizimi.....	465
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
Qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya xarajatlari xisobining muammolari va yechimlari.....	469
Baxriev Muxiddin Sheralievich	



QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA MELIORATSIYA XARAJATLARI XISOBINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Baxriev Muxiddin Sheralievich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasida assistenti

E-mail: mbahriev@mail.ru

ORCID: 0009-0009-9928-0607

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jalik korxonalarida kapital qo'yilmalarning alohida turi bo'lgan melioratsiya ishlarining mohiyati va turplari, melioratsiya xarajatlarini boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobda sintetik va analitik hisobini yuritishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: melioratsiya, kapital qo'yilma, melioratsiya ishlari, xarajat elementlari, xarajat moddalari, buxgalteriya hisobvaraqlari, hisobvaraqlar bog'lanishi.

Abstract: The article examines the nature and types of melioration works, which are a special type of capital investment in agricultural enterprises, as well as proposals and recommendations developed as a result of research for improving the synthetic and analytical accounting of land reclamation costs in management and financial accounting.

Key words: land reclamation, capital investments, reclamation works, cost elements, cost items, accounting accounts, correspondence of accounts.

Аннотация: В статье рассматриваются сущность и виды мелиоративных работ, являющихся особым видом капитальных вложений в сельскохозяйственных предприятиях, а также разработанные в результате исследований предложения и рекомендации по совершенствованию синтетического и аналитического учета затрат на мелиорацию земель в управленческом и финансовом учете.

Ключевые слова: мелиорация земель, капитальные вложения, мелиоративные работы, элементы затрат, статьи затрат, счета бухгалтерского учета, корреспонденция счетов.

KIRISH

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish mahsulot ishlab chiqarish hajmini barqaror ko'paytirib borish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshirishga bevosita bog'liq. Buning uchun, mavjud resurslardan, shu jumladan yer resurslaridan oqilona foydalanishni talab qiladi. Ya'ni yerlarning tabiiy unumdorligi oshirish, yer sharoitiga mos bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlarini ekish lozim. Yerlarni unumdorligini oshirishda melioratsiya ishlarining ahamiyati katta bo'lib, ushbu ishlar yer unumdorligini yaxshilash qaratilgan tadbirlardir.

Shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi¹da belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun: "Melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish. Cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari va haroratning ko'tarilishiga qarshi chora sifatida jami 600 ming gektar maydonda «yashil qoplamalar» - himoya o'rmonzorlarini barpo etish. Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 6075 gektar yer maydonlarini rekultivatsiya qilish"¹ vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu vazifalarni bajarishda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, resurslarni maqsadli yo'naltirish, melioratsiya ishlari olib boriladigan maydonlarni aniqlash, melioratsiya ishlarining xarajat-smetalarini tuzish, moliyalashtirish manbalari yaratish bilan birga, xarajatlarni hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish, xarajatlarni xarajat obyektlariga iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash lozim bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023yil 11sentabr PF-158-son Farmoniga 1-ilova. «O'zbekiston-2030» Strategiyasining 63 va 70 masadlarni samaradorlik ko'rsatkichlari. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>



Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya ishlari xarajatlarini buxgalteriya hisobini yuritish, xarajat obyektini aniqlash, yakunlangan ishlar bo'yicha bajarilgan ish hajmini baholash va xarajatlarni iqtisodiy asoslangan holda taqsimlashda muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etilishi melioratsiya xarajatlari hisobini takomillashtirish bilan birga, buxgalteriya hisobi hamda hisoboti axborotlarini ishonchliligi oshirib, boshqaruv qarorlari samaradorligini ta'minlaydi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olimlar A.Vahabov, N.Ishonqulov, A.Ibrohimovning fikricha: "Xarajatlar - hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklining kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir"².

Xarajatlar turkumlanganda, turli belgilari bo'yicha bir necha bo'lib, ular ichida kapital qo'yilma xarajatlari alohida o'rin tutadi. Kapital qo'yilma xarajatlari tarkibiga kiritiladigan xarajatlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tarmoq xususiyatidan kelib chiqib turlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bu holat kapital qo'yilmalar mohiyatini ochib berishda ta'sir qiladi.

Rossiyalik olim A.V.Podlesskiy ta'rificha: "Kapital qo'yilmalar – bu korxonaning strategik yoki operatsion maqsadlariga erishish qobiliyatini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy vositalarni yaratish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qurollantirish uchun sarflangan mehnat, material va moliyaviy resurslar xarajatlari"³.

Buxgalteriya hisobining № 21-son milliy standartida "Korxonaning asosiy fondlarga va nomoddiy aktivlarga kiritgan investitsiyalari, shuningdek, mahsuldor va ishchi chorva mollarining asosiy podasini shakllantirish xarajatlari (parrandalar, mo'ynali hayvonlar, quyonlar, asalarilar, qo'riqchi itlar, tajriba hayvonlari bundan mustasno)"⁴ kapital qo'yilma xarajatlarga kiritilishi belgilab berilgan.

S.R.Abdualievaning qayd etishicha: "Kapital qo'yilmalar tarkibiga asosiy vositalar, tabiiy resurslar va nomoddiy aktivlarni sotib olishdan tashqari asosiy vositalarni o'sishi va ularni yaxshilanishiga sarflanadigan xarajatlar ham kiradi"⁵.

Melioratsiya xarajatlari ham kapital qo'yilmalarning bir turi bo'lib, ular hisobi alohida yuritiladi. "Qishloq xo'jaligi korxonasi o'z yer uchastkasida meliorativ ishlarni amalga oshirsa, u holda kapital qo'yilmalar alohida hisobga olinadi. Ya'ni, mohiyatan melioratsiya ishlari yaxshilangan uchastkaning dastlabki narxini oshiradi"⁶.

Yu.S.Sinitsina melioratsiya tizimi bilan birga melioratsiya ishlarini hisobini to'g'ri yo'lga qo'yishni ta'kidlagan: "qishloq xo'jaligi yerlarining resurs salohiyatini oshirish va hosilni yo'qotish xavfini kamaytirish uchun samarali meliorativ tizim bilan melioratsiya zarur. Uning samaradorligini oshirish uchun ushbu tizimga kiritilgan barcha obyektlar haqida dolzarb va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish zarur"⁷.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yilmalarni, jumladan melioratsiya ishlarini amalga oshirishga oid respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi - olimlarining ilmiy ishlari, faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jalik korxonalari moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar statistik ko'rsatkichlari, jumladan melioratsiya ishlarining buxgalteriya hisobi bo'yicha dastlabki va yig'ma hujjatlar, hisob registrlari, boshqaruv va moliyaviy hisobot axborotlaridan hamda ilmiy tadqiqot natijalarining materiallaridan foydalanildi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda, jumladan melioratsiya ishlarini amalga oshirishda xarajatlarni hisobga olish, melioratsiya ishlari natijalarini baholash, buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish, melioratsiya xarajatlarni hisobdan chiqarish jarayonlari o'rganish va tahlil qilishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilish va boshqa ilmiy-tadqiqot usullardan foydalanildi.

2 Vahabov A., Ishonqulov N. Ibrohimov A. Darslik. Moliyaviy va boshqaruv tahlili.-T.: Iqtisod-moliya, 2013. -422 b.

3 Подлесский А.В. "Сущность, классификация, структура и значение капитальных вложений". Экономика и управление. — 2013. — № 4 (36). — С. 19—23.

4 O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejası va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga 2-iloıa. 67-modda. <https://lex.uz/uz/docs/7282737>

5 Abdualieva S.R. "Kapital qo'yilmalar hisobi va auditni takomillashtirish" "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №1, 2022 yil.

6 Затраты на коренное улучшение земель учитываются в составе основных средств (п. 5 ПБУ 6/01 «Учет основных средств», приказом Минфина России от 13 октября 2003 г. № 91н). <https://inform-raduga.ru/about/publish/81972>

7 Ю.С.Синицина."Актуальные вопросы учета мелиоративных систем". Московский экономический журнал. 2022. № 6, 205-2016бетлар.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4329 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil kiladi (1-jadval).

1-jadval. Respublikamizda yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi⁸ mingga.

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug'oriladigan yerlar	
		Jami	% da	Jami	% da
1	Qishloq; xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	20761,6	46,25	4210,1	9,38
2	Aholi punktlarining yerlari	223,4	0,50	52,7	0,12
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	867,4	1,93	12,7	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	731,7	1,63	0,6	0,0015
5	Tarixiy-ma'daniy ahamiyatga molik yerlar	14,6	0,03		
6	O'rmon fondi yerlari	12020,8	26,78	45,9	0,10
7	Suv fondi yerlari	835,2	1,86	4,7	0,01
8	Zahira yerlar	9437,7	21,02	2,3	0,005
	Jami yerlar:	44892,4	100,00	4329	9,64

Yer maydonlarini tabiiy unumdorligini oshirish, qimyoviy-fizik xossalari balansini ta'minlab turish, erroziyaga uchrashdan saqlash, sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun qulay holatga keltirish va boshqa amalga oshiriladigan ishlar melioratsiya ishlarini tashkil etadi.

Melioratsiya so'zi lotin tilidagi "melioratio" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjimasida "yaxshilash" ma'nosini bildiradi⁹. Qishloq xo'jaligi da melioratsiya ishlariga yerlarning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy, xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar kiritiladi.

Yer resurslaridan to'g'ri foydalanish hamda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy usul va texnologiyalardan foydalanish meliorativ ishlarni muvaffaqiyatli olib borishning muhim omilidir. Melioratsiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga hamda iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi va ekologik vaziyat muammolarini hal etilishiga yordam beradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida amalga oshiriladigan melioratsiya ishlari quyidagilarga bo'linadi:

1. Noqulay suv rejimiga ega bo'lgan yerlar melioratsiyasi (yerlarni sug'orish uchun qulay holatga keltirish, ortiqcha zax bosgan yerlarda zax qochirish, cho'l va yarim cho'l hududlardagi yaylovlarga suv chiqarish va h. k.);

2. Noqulay fizik va kimyoviy xossali yerlar melioratsiyasi (sho'rxok, qumli, og'ir, berchlashgan, zichlashgan tuproqlarga ishlov berish);

3. Suv va shamol ta'sirida eroziyaga uchragan yerlar melioratsiyasi.

Amalga oshiriladigan melioratsiya ishlarining turlari tavsifini quyidagicha ifodalanadi (2-jadval).

⁸ O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida milliy hisobot. Daverageodezkadastr qo'mitasi, 2020 yil. C:/Users/Defender/Desktop/%D0%A3%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%

⁹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/melioratsiya-uz/>



2-jadval. Qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya turlari tavsifini

Melioratsiya turlari	Melioratsiya maqsadi	Melioratsiya ishlari	Melioratsiya natijasi
Gidromelioratsiya	Tuproq suv rejimini tartibga solish	Sug'orish va zax qochirish uchun suv oqimini tartibga solinadi.	Yerlarni unumdorligi va ekinlar hosildorligi oshadi
Agrotexnik melioratsiya	Yerlar eroziyaga uchrashini oldini olish, ekinlar uchun mikroklimat yaratish	Yer maydonlarini himoya qilish va qir-adirlar qoyalarini mustahkamlash uchun daraxt va butalar o'tqaziladi.	Shamol ta'siri kamayadi, yerni nam saqlash imkoniyati kengayadi, yer landshafti yaxshilanadi.
Madaniy- texnik melioratsiya	Yerni madaniy- texnik holatini yaxshilash	Yerlar toshlar va daraxtlar ildizlaridan tozalanadi.	Yerga ishlov berish yaxshiladi, yerlardan foydalanish samaradorligi ta'minlanadi
Ximiyaviy melioratsiya	Yerlarni ximiyaviy tarkibini yaxshilash.	Yer maydonlarining ximiyaviy-fizik tarkibini yaxshilash uchun ohak, gips va organik o'g'itlarni solinadi.	Tuproqning kislotaliligi optimallasadi, tuzilishi yaxshilanadi, o'simliklar uchun ozuqa moddalarining mavjudligini oshadi.
Agrofito-melioratsiya	Yerlarni unumdorlik tarkibini o'simliklar yordamida yaxshilash	Sederatorlar va akkumulyator o'simliklar ekiladi, fito-sanitar almashlab ekishni tashkil etiladi	Tuproq organik moddalar bilan boyiydi, tuproq tuzilishini yaxshilanadi, agroekotizimning bioxilma-xilligini oshadi.
Termal melioratsiya	Tuproqning termal sharoiti tartibga solish	Mulchalash va boshqa issiqliqdan yaxshi foydalanish uchun sharoit yaratiladi.	Bahorda yerni tezroq qizishi va erta ekin uchun sharoit yaratiladi

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, melioratsiya ishlari turli maqsadda amalga oshirilib, uning natijasida tuproqning tabiiy sharoitlari, suv va iqlim bilan bog'liq holatlarga kerakli o'zgartirishlar kiritilib, ekilgan ekinlarning o'sishi, sug'orishi, havo va oziq rejimi yaxshilanishiga olib keladi. Bunda, yerlarning unumdorligi, hosildorligi oshadi, [mahsulot sifati](#) yaxshilanib, uning tannarxi pasayadi. Melioratsiya ishlari iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bilan birga ekologik vazifalarni ham [hal](#) etadi.

Qishloq xo'jaligida melioratsiya ishlarini amalga oshirish ko'p kapital mablag' talab qiladi. Lekin shunga qaramay, hozirgi iqlim o'zgarishlari ro'y berayotgan, suv tanqisligisezilayotgan, ekologik muammolar o'z yechimini kutayotgan vaqtda melioratsiya ishlarini amalga oshirish qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega, chunki u yer resurslari unumdorligini oshirishga, ekinlar hosildorligini va chorvachilik uchun ozuqa bazasini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, u yangi yer maydonlarini, jumladan, cho'l hududlarini o'zlashtirish, qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Natijada, melioratsiya ishlari uchun sarflangan xarajatlar yerlar unumdorligining [yil](#) sayin oshib borishi hisobiga bir necha yil ichida qoplanadi.

Melioratsiya ishlari yirik xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, buxgalteriya hisobida ularni to'g'ri va o'z vaqtida hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya ishlari turli – tumanligi ularda xarajatlarni hisobga olishda ayrim xususiyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Melioratsiya ishlari natijasi inventar ko'rinishiga va inventar ko'rinishga ega bo'lmagan ishlarga bo'linadi. Inventar ko'rinishdagi ishlarga drenaj, irrigatsiya va boshqa melioratsiya obyektlari qurish kirsas, inventar ko'rinishga ega bo'lmagan ishlarga yerlarni sirtini yaxshilash bo'yicha madaniy va texnik tadbirlar, yerlarni daraxt va butalar ildizlari hamda toshlardan tozalash, yerni tekislash ishlari kiradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yerni obodonlashtirish xarajatlari xam mavjud bo'lib, ushbu xarajatlar "0850 «Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar» hisobvarag'ida yer maydonini obodonlashtirish bo'yicha xarajatlar, shuningdek kirish yo'llari, avtomobil va boshqa transport vositalarining to'xtash maydonlari, devorlar va ko'kalamzorlashtirishning boshqa turlari qiymati hisobga olinadi"¹⁰. Shunday qilib, melioratsiya xarajatlari va yerni obodonlashtirish xarajatlari kapital qo'yilmalarga kirib, ular bir-biridan farq qiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida foydalanishda bo'lgan yer maydonlarida amalga oshirilgan melioratsiya ishlari 0890 «Boshqa kapital qo'yilmalar» schetida hisobga olib boriladi. Bu schet bo'yicha analitik schetlar kapital qo'yilmalarni turlari bo'yicha hisobga olib boriladi. Bunda melioratsiya ishlari inventar xarakterga ega bo'lgan va inventar xarakterga ega bo'lgan bo'lmagan bo'lib, ularda xarajatlar turlari bir-biridan farq qiladi, shuning uchun ularni quyidagi xarajat moddalari bo'yicha hisobga olib borishni taklif qilamiz (3-jadval):

10 O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga 2-ilova. 72-modda. <https://lex.uz/uz/docs/7282737>



3-jadval. Melioratsiya xarajatlarini hisobga olish bo'yicha xarajat moddolari

№	Xarajat moddasi	Melioratsiya xarajatlari natijasidagi buxgalteriya hisobi obyekt		Hisobvaraqlar bog'lanishi	
		Inventar xarakterga ega	Inventar xarakterga ega bo'lmagan	Debet	Kredit
1	Mehnat haqi, ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalari bilan birga	+	+	0890	6710, 6420
2	Qurilish materiallari	+	-	0890	1040
3.	O'g'itlar	-	+	0890	1090
4.	Boshqa materiallar	-	+	0890	1030, 1040, 1090
4	Asosiy vositalar amartizatsiyasi	+	+	0890	0220- 0290
5	O'z yordachi ishlab chiqarishlari xizmati	+	+	0890	2310
6	Pudratchi tashkilotlar xizmati	+	+	0890	6010
7	Boshqa xarajatlar	+	+	0890	2310, 6010 va h.k.

3-jadvalda aks ettirilgan xarajat moddolari asosida hisobga olinadigan melioratsiya xarajatlari 0890 - "Boshqa kapital qo'yilmalar" schetida hisobga olib boriladi. Melioratsiya ishlari hisobot davrida tugagandan so'ng yoki hisobot davrida tugalanmay qolsa ham O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosiy vositalar»¹¹ga asosan tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi:

Debet 0190- "Boshqa asosiy vositalar"

Kredit 0890 - "Boshqa kapital qo'yilmalar".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya xarajatlari xisobini tashkil etish va yuritishni takomillashtirish zaruriyati mavjud bo'lib, ularni takomillashtirish bo'yicha berilgan tavsiya va takliflar mavjud muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyati bevosita yer bilan bog'liq bo'lib, yetishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi sug'oriladigan yer maydonlaridan, ya'ni sug'orma dehqonchilikdan olinadi. Shuning uchun, yer maydonlarini sug'orish uchun qulay holatga keltirish, yerlarni tekislash, daraxt ildizlari va toshlardan tozalash, kislotali tuproqlarni ohaklash va fosforlash, sho'rlangan tuproqlarni gips va meliorativ tozalash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar kapital qo'yilmaning alohida turi bo'lgan melioratsiya ishlariga kiradi. Ularni buxgalteriya hisobida yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalardan alohida hisobga olib borish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jalik korxonalarida melioratsiya xarajatlari xisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni taklif qilamiz:

qishloq xo'jalik korxonalari "Hisob siyosati"ga kapital qo'yilmalar bo'yicha alohida bo'lim kiritish, bunda har bir turdagi kapital qo'yilmalarni alohida hisobga olib borish bilan bog'liq buxgalteriya hisobi tamoyillari va usullarini aks ettirish lozim. Natijada kapital qo'yilmalarni turlari bo'yicha nazorat va tahlil qilish asosida boshqaruv qarorlari samaradorligini taminlash bilan birga, axborotlar ishonchligini ta'minlaydi.

melioratsiya xarajatlarini hisobga olib borish uchun buxgalteriya hisobvaraqlar rejasiga 0880 – "Melioratsiya xarajatlari" hisobvarag'ini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki yerni obodonlashtirish va melioratsiya xarajatlari bir-biridan farq qilib, melioratsiya xarajatlarini alohida hisobga olib borish, ularni umumlashtirish, nazorat va tahlil qilish uchun imkon yaratadi.

melioratsiya xarajatlari natijasida inventar xarakterga ega yoki inventar xarakterga ega bo'lmagan buxgalteriya hisobi obyektlari hisobga olinib, ular bo'yicha xarajatlarni alohida hisobga olish, bunda taklif etilgan

¹¹ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosiy vositalar». Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 14 iyundagi 133-son buyrug'i. (Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 9 avgust ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3546). 1-ilova. 27 modda. <https://www.lex.uz/docs/7058293>



xarajat moddolari bo'yicha xarajatlar hisobini aniq va o'z vaqtida tegishli hisob reshgistrarida aks ettirilishiga olib keladi.

melioratsiya xarajatlari natijasida inventar xarakterga ega buxgalteriya hisobi obyektlarini foydalanish muddatiga qarab amortizatsiya hisoblash, inventar xarakterga ega bo'lmagan buxgalteriya hisobi obyektlari bo'yicha 5 yil muddatga amortizatsiya hisoblash va bunda amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahriri)gi qonuni. 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son. <https://lex.uz/uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoniga 2-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/6811936>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son Farmoniga 1-ilova. «O'zbekiston-2030» Strategiyasining 63 va 70 masadlarni samaradorlik ko'rsatkichlari. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
4. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-so'hn qarori bilan tasdiqlangan. www.Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosiy vositalar». Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 14 iyundagi 133-son buyrug'i. (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 9-avgust ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3546). 1-ilova. 27 modda. <https://www.lex.uz/docs/7058293>
6. "O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS №21) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejası va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomani". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 23-oktabrda 1181-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. <https://lex.uz/acts/809350>
7. Abduvalieva S.R. "Kapital qo'yilmalar hisobi va auditni takomilashtirish" "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №1, 2022 yil.
8. Vahabov A., Ishonqulov N. Ibrohimov A. Darslik. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.: Iqtisod-moliya, 2013. -422 b.
9. Подлесский А.В. "Сущность, классификация, структура и значение капитальных вложений". Экономика и управление. — 2013. — № 4 (36). — С. 19—23.
10. Abduvalieva S.R. "Kapital qo'yilmalar hisobi va auditni takomilashtirish" "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №1, 2022 yil.
11. Затраты на коренное улучшение земель учитываются в составе основных средств (п. 5 ПБУ 6/01 «Учет основных средств», приказом Минфина России от 13 октября 2003 г. № 91н). <http://информ-радуга.ру/> абуот/публиш/81972
12. Ю.С.Синитина. "Актуальные вопросы учета мелиоративных систем". Московский экономический журнал. 2022. № 6, 205-2016бетлар.
13. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida milliy hisobot. Davergeodezkadastr qo'mitasi, 2020-yil. <C:/Users/Defender/Desktop/%D0%A3%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%>
14. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/melioratsiya-uz/>
15. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)
16. Fayziev, O. ., Abdug'anieva, S. ., & Yo'ldoshboev, A. . (2022). Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va xususiyatlari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(6), 79–81. извлечено от
17. O.R.Fayziyev, A.H.Yo'ldoshboev. Ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobini tashkil etishning asosiy tamoyillari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20.06.2022 й., 9-сон. Б. 308-311
18. Fayziyev O.R. "Aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari" // «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2024. - № 4. – B. 43-47
19. Fayziyev O.R. "Aylanma mablag'lar aylanuvchanligini tezlashtirishning asosiy yo'llari" // «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot». – Toshkent, 2024. - № 11. – B. 179-184.
20. Fayziyev O.R. "Aylanma mablag'lar samaradorligini oshirishning muhim omili" // "Jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va yechimlar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami, 2-qism / Ma'mun universiteti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. 41–46 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
